

O‘ZBEKISTONDA LEGAL TECH RIVOJLANISH BOSQICHLARI

M.Sadikov

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Texnologiya, huquq, raqamli huquq, raqamli texnologiya va huquq, muammolar, yechimlar.*

Bugungi kunda ko‘pdan-ko‘p mamlakatlar inson faoliyatining turli sohalarini raqamlashtirib kelmoqda. Huquqshunoslik ham bundan mustasno emas. Shu munosabat bilan Legal tech va Law tech deb nomlangan texnologiyalardan huquqiy amaliyotda unumli foydalanib kelinmoqda.

Legal tech - bu yuridik sohani raqamli texnologiyalar bilan qamrab oluvchi, yuridik xizmatlarni avtomatlashtirilgan tarzda ko‘rsatish, shuningdek yuridik masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechishga qaratilgan yurisprudensiya va axborot texnologiyalari soxalari uyg‘unligida hosil bo‘lgan yo‘nalishidir¹⁸.

Ma‘lumki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5987-son Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish grafigining 33-bandiga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tashabbuslar va innovatsiyalar markazi huzuridagi **Legal Tech laboratoriyasi** tashkil etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5997-son Farmonida adliya organlari va muassasalari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali **“virtual adliya”** tizimini ishga tushirish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020-yil 10-oktabrdagi **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini** tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmonida mamlakatimizda davlat boshqaruvi sohasini rivojlantirish hususan, mamlakat miqyosida **sifatli va talab yuqori bo‘lgan elektron davlat xizmatlarini** yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o‘tkazish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi 409-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi “Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasida **“Davlat boshqaruvi va adliya organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘limi”** faoliyat yurutmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi **“Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** PQ–4996-son Qaroriga muvofiq, Axborot texnologiyalari va

¹⁸ <https://tashkentlaw.spring.uz/uz/article/95>

kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi **Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti** tashkil etilgan. Mazkur qarorning 2021-2022-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 14-bandida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan **Davlat tilida sun'iy intellekt bo'yicha izohli lug'at** ishlab chiqish, 15-bandida esa sun'iy intellekt sohasida amaliy algoritmlar yozishda tadqiqotchilarni rag'batlantirish maqsadida **doimiy ravishda "xakaton"lar va tanlovlar o'tkazish** nazarda tutilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu Qarorda sun'iy intellekt sohasida **milliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari** va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining **hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari faolligini oshirish**, sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan **xalqaro hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish** va sun'iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borayotgan **yosh olimlarni qisqa muddatli xorijiy ilmiy stajirovkalarga yuborish** ham belgilangan. Shuningdek, sun'iy intellekt sohasidagi **startup loyihalarni qo'shma moliyalashtirish (crowd funding)** mexanizmlarini joriy etish ham yuqodigai normativ-huquqiy hujjatda nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarorining 6-ilovasida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida **sun'iy intellekt texnologiyalarini amaliy qo'llash bo'yicha o'quv kurslari va fanlarini joriy qilish** ko'zda tutilgan oliy ta'lim muassasalar ro'yxatiga **Toshkent davlat yuridik universiteti** kiritilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi paytda Legal tech sohasida bir qator ilmiy faoliyatlar amalga oshirilib kelinmoqda, ularga yuqorida keltirilgan TDYU Legal Tech laboratoriyasi, S.Gulyamovning **Cyberlaw.uz** (<http://cyberlaw.uz/>) kiber huquq ilmiy maktabi, Dr.Ammar Younasning **Central Asia Tech Law** (<https://centralasiatechlaw.com/>) loyihasi keltirisak bo'ladi. Bundan tashqari Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti tomonidan 2021-yil 15-dekabr kuni o'tkazilgan "**Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari**" mavzusida xalqaro konferensiyani ham aynan Legal tech sohasini tadqiq etishga qaratilgan.

Bundan tashqari bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy texnologiyalarga oid bo'lgan bir qator ishlanmalar o'z faoliyatini olib bormoqda: lex.uz, <https://advice.uz/uz>, <https://yurxizmat.uz/uz>.

Biroq, hozirgi paytda Legal tech rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklar ham mavjud. Ularga quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

1. Huquqshunoslikni raqamlashtirishga oid bo'lgan amaldagi normativ- huquqiy hujjatlardagi normalar, yo'l xaritalari, chora-tadbirlar hujjatda qolib ketmoqda. Ularni amalga oshirish ustidan **tizimli nazorat** yetarlicha emas. Tizimli nazoratni kim olib borishi kerak degam masala ochiq qolmoqda?

2. Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Legal tech sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tarqoq amalga oshirilmoqda. Xususan, Axborot kommunikatsiya vazirligi, Adliya vazirligi, TDYU, Raqamli

texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, TATU faoliyatlari *o'zaro kelishilmagan* holda amalga oshirilmoqda. Mazkur masala yuzasidan kollektiv yondashuv zarur.

3. Legal texni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqot natijalari, loyihalarning *tutashuv nuqtalari* (platformalar, doiralar, ishchi guruhlar) deyarli mavjud emas. Har bir Davlat tashkiloti, ilmiy tadqiqot markazlari *avtonom izlanishlar* olib bormoqda. Xususan, mamlakatimizda bugungi kunda juda katta e'tibor qaratilayotgan IT Park, 1 million coders loyihalarda Legal tech yo'nalishlari bilan bog'liqligi masalasi so'roq ostida qolmoqda.

4. Adliya vazirligi va TDYU miqyosida Legal tech loyihalarni rivojlantirish bo'yicha *yagona yondoshuv* ishlab chiqilmagan. Bu masala yuzasidan aniq maqsad va vazifalardan iborat bo'lgan yo'l xaritasini tuzish kerak.

5. Universitetning Legal tech loyihalari doirasida har bir amalga oshirilayotgan loyihadan kelib chiqib, bajarilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarining *aniq taqsimoti* mavjud emas. Har bir loyihada ishtirokchilar o'rtasida ishlar taqsimoti bo'lishi lozim.

6. Legal tech sohasida amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi kutilayotgan ilmiy tadqiqot *mavzulari va yo'nalishlar ro'yxati* ilmiy boshqarma tomonidan shakillantirilmagan.

7. Ilmiy tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan har qanday ilmiy, amaliy tadqiqotlar qo'llab-quvvatlash mexanizimini zamonaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqilmaganligi, ularning mehnatini rag'batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi ham muhim kamchiliklardan biri hisoblanadi. Masalan: Legal tech ga oid biror loyihaning aniq bir qismi uchun, amalga oshirilgan ish uchun belgilangan mablag' ajratish taqsimoti belgilanmagan.

8. Xalqaro ekspertlar bilan birgalikda Legal tech loyihalarini amalga oshirish uchun universitetning bir qator ma'muriy cheklovlari mavjud. Masalan, universitetda bir yil dars mashg'ulotlarini olib brogan Pokistonlik mutaxassis, o'z faoliyatida bir necha bor xalqaro bo'lim, buxgalteriyaga tegishli mablag'larni o'z vaqtida ololmaganligi bo'yicha murojaat qililisha to'g'ri kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining IT sohasini va IT-Parklarni rivojlantirish haqidagi murojaati. // <https://www.it-park.uz/uz/itpark/news/prezident-murojaati-it-sohasini-va-it-parklarni-rivojlantirish-haqida>

2. The Future of Jobs Report 2020 world economic forum // <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020/>

3. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

4. Saidakhrorovich G. S. REGULATORY LEGAL FRAMEWORK FOR THE REGULATION OF THE DIGITAL ECONOMY //Национальная ассоциация ученых. – 2020. – №. 58-1 (58). – С. 33-35.



5. С.С. Гулямов, И.Р.Рустамбеков. Международное частное право в киберпространстве. Обзор законодательства Узбекистана. Ж. Ташкент, 2020/2. С. 88
6. <https://lex.uz/docs/-4820060>
7. Sadikov Maksudboy Abdulajonovich. PLACE AND ROLE OF LEGAL TECH IN MODERN LEGAL PRACTICE. Journal of Law Research. 2020, vol. 5, issue 6, pp. 11-15
8. Islambek R., Iskandar M. BLOCKCHAIN TECHNOLOGIES IN INTERNATINAL DISPUTE RESOLUTION // Экономика и юриспруденция. – 2022. – №. 5 (92). – С. 60-63.
9. <https://lex.uz/ru/docs/-4873208>
10. I.Rustambekov, S. Gulyamov. Искусственный интеллект - современное требование в развитии общества и государства. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi, 02.03.2021 y. // <https://yuz.uz/ru/news/iskusstvenny-intellekt---sovremennoe-trebovanie-v-razvitii-obestva-i-gosudarstva>
11. S.Gulyamov, I.Rustambekov, O.Narziyev A.Xudayberganov 2021-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiya loyihasi. Yurisprudensiya. Toshkent, 2021/1.
12. European Parliament resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics // https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-8-2017-0051_EN.html#title1
13. <http://cyberlaw.uz/>
14. Abdulajonovich S. M. Legal Tech Development in Uzbekistan: Problems and Solutions //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 25-28.
15. Sadikov M. Development of Legal Tech: Challenges and Solutions //Journal of Intellectual Property and Human Rights. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 4-8.